

Solih alayhissalom



16:00 / 27.03.2021 7651

Alloh ularga huddi Nuh ummati va od qavmiga yuborganidek, elchi yuborishni xohladi. Albatta Alloh bandalarining kufr botqog'iga botishiga rozi bo'lmaydi, albatta Alloh yerda buzuqlikni yoqtirmaydi. Ularning ichida Solih ismli, obro'li xonadonda tug'ilib, aqlli va salohiyatli bo'lib voyaga yetgan kimsa bor edi. U juda odobli, aql – farosatli bola edi, insonlar unga ishora qilib: «Bu Solih, Bu Solih», deyishar edi. Insonlarni undan umidlari katta edi.

- Hali bu bola ulug' odam bo'ladi!
- Hali bu bola ulug' odam bo'ladi!
- Qavmning oqsoqoli, eng boy-badavlat kishilari qatoriga kiradi.
- O'zining hushmanzara qasri, ulkan bog'-rog'lari bo'ladi.

Solih alayhissalomning otasi ham shunga o'xshash xayollarni surardi:

«Hali uning o'g'li aqli zakovati orqali hammadan ko'p mol-dunyo to'playdi. Zotdor oti ustida ortidan bir gala xizmatkorlarini ergashtirib chiqqanida, ko'rgan kishi o'g'liga salom beradi.

Hamma «Bu Falonchining o'g'li, Bu Falonchining o'g'li» deb aytadi. Odamlar uning juda baxtliligini va o'g'lining haddan tashqari katta boyligini o'zaro gaplashadilar...».

Lekin Alloh taolo boshqa narsani iroda qilgandi. Solih alayhissalom payg'ambarlik sharafiga musharraf qilib, zulmatlardan nurga olib chiqish uchun uni qavmiga elchi qilib yubordi.

Aytingchi, bundan ham ulug' sharaf va bundan ham karomat

bormi?

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad